



NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF COMMUNICATIVE ACTS IN UZBEK LITERARY DISCOURSE

S.R. Akramova

Associate Professor (PhD)

Bukhara State Pedagogical Institute

E-mail: suraeww1984@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: literary discourse, communicative act, speech activity, national and cultural features, pragmatics, dialogue, character speech.

Received: 01.08.26

Accepted: 03.08.26

Published: 03.08.26

Abstract: This article analyzes the national and cultural features of communicative acts used in Uzbek literary discourse. It examines how speech forms such as dialogue, address, request, advice, command, and gratitude are manifested in literary texts in connection with the social experience, moral values, and communication traditions of the Uzbek people. The article also highlights the role of communicative acts in revealing the characters' personalities and reflecting the national worldview.

O‘ZBEK BADIY DISKURSIDA KOMMUNIKATIV AKTLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

S.R. Akramova

BuxDPI dotsenti (PhD)

suraeww1984@gmail.com

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: badiiy diskurs, kommunikativ akt, nutqiy faoliyat, milliy-madaniy xususiyat, pragmatika, dialog, personaj nutqi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek badiiy diskursida qo‘llanadigan kommunikativ aktlarning milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Badiiy matnda dialog, murojaat, iltimos, maslahat, buyruq, minnatdorlik kabi nutqiy shakllarning yuzaga kelishi xalqning ijtimoiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va muloqot an‘analari bilan bog‘liq holda yoritiladi. Kommunikativ aktlarning badiiy qahramon xarakterini ochish, milliy

dunyoqarashni aks ettirishdagi oʻrni koʻrsatib beriladi.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОММУНИКАТИВНЫХ АКТОВ В УЗБЕКСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ

С.Р. Акрамова

Доцент (PhD) Бухарского государственного педагогического института

E-mail: suraeww1984@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: художественный дискурс, коммуникативный акт, речевая деятельность, национально-культурные особенности, прагматика, диалог, речь персонажа.

Аннотация: В статье анализируются национально-культурные особенности коммуникативных актов, используемых в узбекском художественном дискурсе. Рассматривается проявление в художественном тексте таких речевых форм, как диалог, обращение, просьба, совет, приказ и благодарность, в связи с социальным опытом, нравственными ценностями и коммуникативными традициями узбекского народа. Раскрывается роль коммуникативных актов в характеристике персонажей и отражении национального мировоззрения.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda badiiy diskurs tilning estetik, kommunikativ va madaniy imkoniyatlarini oʻzida mujassamlashtiruvchi murakkab hodisa sifatida talqin etiladi. Badiiy matnda muallifning gʻoyaviy-badiiy niyati turli kommunikativ vositalar orqali ifodalanib, kitobxon bilan oʻziga xos muloqot maydonini hosil qiladi. Shu nuqtai nazardan kommunikativ aktlar faqat axborot uzatishga xizmat qiluvchi birliklar emas, balki milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va maʼnaviy qarashlarni aks ettiruvchi pragmatik hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbek badiiy adabiyotida kommunikativ aktlarning milliy-madaniy jihatlarini oʻrganish til va madaniyatning oʻzaro bogʻliqligini ochib berishda muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda uchraydigan murojaat, iltimos, eʼtirof, iztirob, sogʻinch va munosabat ifodalovchi nutqiy birliklar xalqning asrlar davomida shakllangan muloqot madaniyati hamda axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bogʻliqdir. Ularning badiiy matndagi qoʻllanilishi nafaqat mazmunni boyitadi, balki personajning ruhiy holati va muallifning estetik maqsadini ham ochishga xizmat qiladi.

Jamol Kamol ijodi falsafiy mushohada, tasavvufiy qarashlar va milliy poetik tafakkurning uygʻunligi bilan ajralib turadi. Shoir sheʼriyatida kommunikativ aktlar lirik qahramonning ichki

kechinmalarini ifodalash bilan birga, inson va borliq, oshiq va ma'shuq, banda va Yaratgan o'rtasidagi ma'naviy muloqotning badiiy ifodasiga aylanadi. Shu bois uning she'rlari kommunikativ aktlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish uchun muhim manba hisoblanadi.

Jumladan, shoirning «So'fiyona» she'rida quyidagi misralar uchraydi:

Ajin emas peshonamda, taqdir chiziqlari,

Ayon bo'ldi qismatimning mavhum yoziqlari,

Ko'ngil emas ko'ksim aro, ko'ngil siniqlari,

Sen qayda-yu men qaydaman, ey yori guluzor? [1, 46-b].

Mazkur misralarda lirik qahramonning murojaati tashqi muloqotdan ko'ra ichki ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, «ey yori guluzor» murojaati sog'inch, hijron va umid tuyg'ularini mujassamlashtirgan kommunikativ akt bo'lib, u sharqona poetik an'analar hamda milliy estetik tafakkur bilan uyg'unlashadi. Natijada kommunikativ akt badiiy matnda nafaqat nutqiy vazifani bajaradi, balki milliy-madaniy mazmunni ifodalovchi muhim lingvistik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Mazkur maqolaning maqsadi Jamol Kamol she'riyati misolida kommunikativ aktlarning milliy-madaniy xususiyatlarini pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning badiiy-estetik vazifasi hamda shoirning individual uslubini shakllantirishdagi o'rnini yoritishdan iborat.

Badiiy diskurs tilning estetik vazifasi bilan bir qatorda, muallif, badiiy qahramon va kitobxon o'rtasidagi murakkab kommunikativ munosabatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Bunday diskursda har bir nutqiy birlik muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiladi hamda mazmunni ifodalash bilan cheklanmay, personajning ruhiy holati, dunyoqarashi va madaniy muhitini ham yoritadi. Shu sababli kommunikativ aktlarni badiiy matndan ajratib holda emas, balki asarning umumiy semantik va pragmatik tizimi doirasida tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kommunikativ akt so'zlovchining muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan nutqiy harakatidir. Badiiy matnda esa bunday aktlar voqelikni tasvirlash vositasidan tashqari, estetik ta'sirni kuchaytirish, obrazning ichki dunyosini ochish hamda kitobxonda muayyan hissiy munosabatni shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Ayniqsa, murojaat, iltimos, e'tirof, tavba, duolar, iztirob va sog'inch mazmunidagi kommunikativ aktlar lirik asarlarda alohida badiiy yuklamaga ega bo'ladi.

O'zbek tilidagi aka, opa, ustoz, ota, ona, azizim, jonim, yor, hazrat kabi murojaat birliklari oddiy nominativ vositalar emas, balki milliy madaniyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarni ham ifodalaydi. Shu bois badiiy asarda qo'llangan har qanday kommunikativ aktning pragmatik mazmuni uning lingvomadaniy kontekstini hisobga olgan holda ochiladi.

Jamol Kamol she'riyatida kommunikativ aktlar tasavvufiy-falsafiy tafakkur bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shoirning lirik qahramoni ko'pincha o'z kechinmalarini bevosita bayon qilishdan ko'ra, ramziy murojaatlar, poetik savollar va ichki dialoglar vositasida ifodalaydi. Natijada nutqiy akt faqat muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki ruhiy izlanish, o'zlikni anglash va ma'naviy kamolot sari intilishning badiiy ifodasiga aylanadi.

Sen qayda-yu men qaydaman, ey yori guluzor? misrasi tashqi ko'rinishda murojaat shakliga ega bo'lsa-da, uning pragmatik mazmuni ancha kengdir. Bu o'rinda lirik qahramon javob kutayotgan suhbatdoshga emas, balki o'z qalbidagi sog'inch va ilohiy visol istagiga murojaat qilmoqda. "Ey yori guluzor" birikmasi milliy she'riyatda qadimdan shakllangan poetik murojaat an'alarini davom ettiradi hamda so'fiyona ramziylik orqali insonning ma'naviy izlanishini ifodalaydi. Demak, ushbu kommunikativ aktning mazmuni faqat til birliklari orqali emas, balki o'zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf madaniyati bilan bog'liq lingvomadaniy kodlar asosida to'liq anglashiladi. Ma'lum bo'ldiki, Jamol Kamol she'riyatida kommunikativ aktlar badiiy mazmunni tashkil etuvchi asosiy pragmatik vositalardan biri sifatida namoyon bo'lib, ularda milliy tafakkur, estetik ideal va ma'naviy qadriyatlar o'zaro uyg'unlashgan holda ifodalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy materiali sifatida Jamol Kamolning "So'fiyona" she'ri tanlandi. Tadqiqot obyekti sifatida she'r tarkibida qo'llangan kommunikativ aktlar, ularning lingvomadaniy mazmuni hamda pragmatik vazifalari belgilandi. Tahlil jarayonida kommunikativ aktlarning lirik qahramon ruhiyati, poetik obrazlar tizimi va milliy madaniy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv) metod she'rning til birliklarini izohlash va tasniflashda, lingvopragmatik metod kommunikativ aktlarning nutqiy maqsadi hamda ularning badiiy matndagi funksiyasini aniqlashda qo'llanildi. Shuningdek, lingvomadaniy tahlil yordamida murojaat shakllari, ramziy ifodalar va milliy-madaniy birliklarning semantik yuklamasi ochib berildi. Kontekstual tahlil metodi esa kommunikativ aktlarning mazmunini she'rning umumiy g'oyasi hamda lirik vaziyat bilan uzviy bog'liq holda talqin etish imkonini berdi.

Tahlilda kommunikativ aktlar alohida til birliklari sifatida emas, balki badiiy diskursning tarkibiy unsuri sifatida o'rganildi. Ularning ma'nosi grammatik tuzilish doirasida emas, balki poetik kontekst, tasavvufiy ramziylik va o'zbek milliy tafakkuri bilan uyg'unlikda izohlandi. Bunday yondashuv she'rda qo'llangan murojaat, iztirob, e'tirof va ritorik so'roq mazmunidagi kommunikativ aktlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yanada to'liqroq yoritish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Jamol Kamol she'riyatida murojaat kommunikativ akti oddiy murojaat vazifasini bajarish bilan cheklanmay, lirik qahramonning ruhiy holati, estetik qarashlari va ma'naviy izlanishlarini ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shoir poetikasida murojaat ko'pincha ichki monolog shaklida yuzaga keladi. Bunda nutq muayyan shaxsga

qaratilgandek tuyulsa-da, uning asl mazmuni lirik qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy izlanishlarini ifodalashga xizmat qiladi.

“So‘fiyona” she‘ridagi: Sen qayda-yu men qaydaman, ey yori guluzor? misrasi buning yaqqol namunasidir. Mazkur jumlada “ey yori guluzor” murojaati grammatik jihatdan adresatga qaratilgan bo‘lsa-da, pragmatik nuqtai nazardan u javob kutishga emas, balki ichki iztirobni ifodalashga xizmat qilmoqda. Demak, ushbu kommunikativ aktning asosiy maqsadi axborot almashish emas, balki emotsional holatni badiiy shaklda ifodalashdir.

Lingvomadaniy jihatdan "yor" leksemasi o‘zbek badiiy tafakkurida keng semantik maydonga ega. Mumtoz she‘riyat an‘analarida u ba‘zan insoniy muhabbat timsolini, ba‘zan esa ilohiy visol g‘oyasini ifodalaydi. Jamol Kamol poetikasida ham ushbu birlik ko‘p qatlamli ma‘no kasb etadi. Shu sababli "yori guluzor" birikmasi konkret shaxs nomi sifatida emas, balki go‘zallik, komillik va ma‘naviy kamolot timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Natijada murojaat kommunikativ akti o‘zining dastlabki kommunikativ vazifasidan tashqariga chiqib, ramziy-estetik mazmunni hosil qiladi.

Shuningdek, misradagi “Sen qayda-yu men qaydaman” konstruksiyasi ritorik so‘roq xarakteriga ega. Bunday sintaktik qurilma suhbatdoshdan javob olishni ko‘zlamaydi, aksincha, lirik qahramon va murojaat obyekti o‘rtasidagi ma‘naviy masofani ta‘kidlash vazifasini bajaradi. Bu esa murojaat aktining pragmatik ta‘sir kuchini oshirib, kitobxonni qahramonning ruhiy kechinmalariga sherik etadi. “So‘fiyona” she‘rida murojaat kommunikativ akti grammatik birlik sifatida emas, balki milliy poetik tafakkur, tasavvufiy ramziylik va emotsional-ekspressiv ma‘nolarni mujassamlashtirgan ko‘p qatlamli lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. E‘tirof mazmunidagi kommunikativ akt lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochib beruvchi asosiy poetik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday aktlarda nutq boshqa shaxsga qaratilgandek tuyulsa-da, uning asl yo‘nalishi subyektning o‘z ichki olamiga qaratiladi. Natijada kommunikativ jarayon tashqi muloqot emas, balki o‘zlikni anglash va ruhiy mushohada shaklida namoyon bo‘ladi.

She‘rning dastlabki misrasida shoir quyidagi poetik ifodani yaratadi: “Ajin emas peshonamda, taqdir chiziqlari” misrasida lirik qahramon o‘z hayotiy tajribasini metaforik obraz orqali ifodalaydi “Ajin” va “taqdir chiziqlari” birliklari tashqi ko‘rinishda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning semantik munosabati inson umrining kechinmalari va taqdir sinovlarini umumlashtiradi. Bu yerda kommunikativ aktning asosiy vazifasi axborot yetkazish emas, balki hayotiy haqiqatni ichki e‘tirof shaklida ifodalashdan iborat.

Lingvomadaniy nuqtayi nazardan peshona obrazi o‘zbek xalq tafakkurida qismat, taqdir va ilohiy iroda tushunchalari bilan uzviy bog‘liq. "Peshonaga yozilgan", "peshonadan ko‘rgan" kabi xalqona iboralar ham inson hayotining Yaratgan tomonidan belgilanishi haqidagi tasavvurlarni

aks ettiradi. Jamol Kamol ana shu madaniy koddan foydalanib, peshonadagi ajinlarni oddiy biologik hodisa emas, balki inson bosib o'tgan ruhiy yo'lining ramziy belgisi sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan e'tirof kommunikativ akti individual kechinma bilan cheklanmay, milliy dunyoqarashning badiiy ifodasiga aylanadi.

Misrada inkor shaklining qo'llanishi ham alohida pragmatik ahamiyat kasb etadi. "Ajin emas..." tarzidagi ifoda kitobxon e'tiborini tashqi belgidan ichki mazmunga yo'naltiradi. Shoir qarilik alomatini emas, balki taqdirning inson ruhiyatida qoldirgan izlarini ta'kidlashni maqsad qiladi. Shu orqali kommunikativ aktning ta'sirchanligi ortib, lirik qahramonning falsafiy mushohadasi yanada teranroq ochiladi.

Demak, mazkur misrada e'tirof kommunikativ akti shaxsiy hayot tajribasini bayon etish bilan birga, o'zbek xalqining taqdir, sabr va komillik haqidagi tasavvurlarini ham badiiy ifodalaydi. Bu esa kommunikativ aktning lingvomadaniy salohiyati faqat til birliklarida emas, balki ularning ortida turgan milliy tafakkur va madaniy xotirada namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Natija. "Ko'ngil emas ko'ksim aro, ko'ngil siniqlari" misrasida emotsional-ekspressiv kommunikativ akt milliy tafakkurdagi ko'ngil konsepti bilan uzviy bog'langan. Metaforik ifoda va inkor konstruksiyasining uyg'un qo'llanishi lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini chuqur ochishga xizmat qilgan hamda kommunikativ aktning lingvomadaniy salohiyatini kuchaytirgan.

Jamol Kamolning "So'fiyona" she'rida kommunikativ aktlarning eng murakkab ko'rinishlaridan biri murojaat va ritorik so'roq shakllarining birikishi orqali yuzaga keladi. Bunday nutqiy shakllarda lirik qahramonning maqsadi aniq javob olish emas, balki ichki ruhiy holatni ifodalash, mavjud ma'naviy masofani his qildirish va kechinmalarni poetik shaklda namoyon etishdan iborat bo'ladi.

She'rning yakuniy misrasi: Sen qayda-yu men qaydaman, ey yori guluzor? Bunda lirik qahramonning ichki iztirobini ifodalovchi murakkab kommunikativ akt sifatida namoyon bo'ladi. Misrada qo'llangan "sen" va "men" olmoshlari ikki subyekt o'rtasidagi qarama-qarshi holatni yuzaga keltiradi. Biroq bu qarama-qarshilik oddiy ijtimoiy masofa emas, balki ruhiy va ma'naviy ayriliqni ifodalovchi poetik vositadir.

Ushbu misrada "qayda" so'roq olmoshining takroriy qo'llanishi ritorik ta'sirni kuchaytiradi. Tashqi shakl jihatidan so'roq gap bo'lsa-da, mazmunan u javob talab qiluvchi savol emas. Lirik qahramon o'zining holatini anglashga, ichki ziddiyatini ifodalashga urinadi. Shu jihatdan mazkur kommunikativ akt ekspressiv xususiyat kasb etib, subyektning ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi. Misraning ikkinchi qismi "ey yori guluzor" murojaat aktining milliy-poetik xususiyatlarini namoyon etadi. O'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyatida yor obrazi ko'pincha go'zallik, mehr, visol va komillik timsoli sifatida shakllangan. "Guluzor" komponenti esa sharqona poetik

an'anaga xos bo'lib, yorning tashqi go'zalligi bilan bir qatorda uning ma'naviy qadrini ham ifodalovchi badiiy vositadir.

Lingvomadaniy jihatdan ushbu murojaat shakli o'zbek she'riy tafakkurida shakllangan oshiq va ma'shuq munosabati modeliga asoslanadi. Bunda oshiqning murojaati faqat insoniy muhabbat ifodasi emas, balki ko'pincha ruhiy kamolotga intilish, yuksak ma'naviy haqiqatni izlash holatini ham anglatadi. Jamol Kamol she'riyatida bu an'ana tasavvufiy mazmun bilan uyg'unlashib, kommunikativ aktga yanada chuqur ma'no yuklaydi. Shuningdek, ushbu misrada murojaat shaklining so'roq konstruksiyasi bilan birlashishi kommunikativ aktning ta'sir kuchini oshiradi. Agar oddiy murojaat faqat adresatni chaqirish vazifasini bajarsa, bu yerda u lirik qahramonning butun ruhiy holatini ifodalovchi poetik vositaga aylanadi. Natijada kommunikativ akt tashqi muloqot chegarasidan chiqib, ichki monolog shakliga yaqinlashadi.

Xulosa. Jamol Kamolning «So'fiyona» she'ridagi kommunikativ aktlar lirik qahramonning ruhiy holati, ma'naviy izlanishlari va milliy poetik tafakkurini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, murojaat, e'tirof, emotsional ifoda va ritorik so'roq shaklidagi kommunikativ birliklar she'r mazmunini chuqurlashtirib, undagi lingvomadaniy qatlamni yuzaga keltiradi.

She'rdagi "yor", "ko'ngil", "peshona", "taqdir" kabi konseptual birliklar o'zbek xalqining ma'naviy qarashlari va estetik tafakkuri bilan bog'liq holda qo'llangan. Shu jihatdan kommunikativ aktlar badiiy matnda nafaqat muloqot vositasi, balki milliy madaniyat va ruhiy tajribani aks ettiruvchi lingvistik hodisa sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kamol J. Anvarmirzo hikoyatlari. Saylanma. V qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 46 b.
2. Остин Дж. Л. Слово как действие. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. Теория речевых актов. – Москва: Прогресс, 1986.
3. Серль Дж. Классификация иллокутивных актов. // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. Теория речевых актов. – Москва: Прогресс, 1986.
4. Арутюнова Н. Д. Дискурс. // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
6. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини. – Тошкент: Фан, 2011.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.